P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnura Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini rivojlantirishda ba'zi iqtisodiy yondashuvlarning nazariy jihatlar.....	1369
Iskandarova D.B.	
Yashil (eko) investitsiyalarni tijorat banklari orqali moliyalashtirish	1373
Kamilova Iroda Xusniddinovna	
Improvement of inventory accounting audit based on international standards	1378
Ovlayev Suhrob Temur o'g'li, Yo'ldiyor Oybek Ulug'bek o'g'li, Normomina Dilorom Umar qizi, Avlayeva Oybarchin Olim qizi	



Artificial intelligence systems for assessing creditworthiness	1382
Mardonova Durdona Yaxshiboy qizi	
B2B bozorini rivojlantirishda raqamli marketing texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish	1387
Samadov Askarjon Nishonovich	
Tech-driven growth and the economy of the future: brics-t in the society 5.0 paradigm	1395
Kaldibayev Nurlan Alimjanovich, Sagdullayeva Gulnora Botirovna, Durmanov, Akmal Shaimardanovich	
O'zbekistonda tabiiy resuslardan olinadigan rentaning yaimdagi ulushiga tanlab olingan o'zgaruvchilar ta'siri tahlili	1404
Tursunov Husnidin, Ibragimov Hasan	
O'zbekistonda fond bozorini tartibga solish	1412
Sultonov Sherali Nuraliyevich	
Public perception of the feasibility of introducing islamic banking in Uzbekistan: a consumer perspective	1418
Dr. Shamirova Surayyo Kabildjanovna	
Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism	1425
Norchaev Asatullo Norbutaevich	
Возможности совершенствования практики финансирования инвестиционных проектов	1430
Шомуродов Равшан Турсункулович, Хакимов Хафизбек Хамза угли	
O'zbekistonda pochta aloqasi xizmatlarini ko'rsatishning transport-logistika jarayonini mintaqaviy darajada rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish	1436
Palvanbayev Umiddbek O'ktam o'g'li	
Aksiyalar qiymatini baholashning nazariy asoslari	1440
Botirxo'ja Aziza Faxmuddin qizi	
Yashil iqtisodiyotni moliyalashtirishning rivojlanayotgan davlatlar amaliyoti tahlili	1444
Raimjanova Madina Asrarovna, Zokirova Feruza Farxod qizi	
Yashil loyihalarni davlat xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish	1449
Zokirova Feruza Farxod qizi	
Факторы и риски, влияющие на оценку стоимости акции	1453
Батирхужа Азиза Фахмуддин кизи	
Финансовые риски в эпоху цифровой экономики: новые вызовы и способы управления	1458
Нуруллина Камила Рустамовна	
Tijorat banklarining yangi bank xizmatlarini iqtisodiy samaradorligi	1463
Raxmatov Temur Sotiboldiyevich	
Yashil iqtisodiyotga o'tish jarayonida ekologik innovatsiyalarning roli va amalga oshiruv mexanizmlari	1472
Ulichkina Lyudmila Ivanovna	
Эволюция профессиональных стандартов в республике узбекистан: от формирования к внедрению в сфере туризма	1478
Гольшева Елена Вячеславовна, Ивонина Наталья Викторовна	
Aligning uzbekistan's education reform with global best practices: the university of missouri as a model for systemic transformation	1485
Azamat Sulaymonov, Laylo Yakhshiboyeva	
O'zbekiston tijorat banklarining investision faolligini ta'minlash masalalari	1489
Axmedov Shoymurod Azamat o'g'li	
Kichik biznes subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalasi	1493
Q.O.Tursunboyev	
Adoption of green economy mechanisms in the process of diversification of construction enterprises	1500
Yembergenova Aynur Aidosbayevna	
Nomoddiy aktivlar hisobini yuritish va audit jarayonlarini takomillashtirish yo'llari	1506
Rozmatova Umida Yuldashevna	
Raqamli moliya va uni sohaga joriy etish: innovatsion salohiyat	1512
Babadjanov Abdirashid Musayevich	
Влияние корпоративной культуры на инвестиционную стратегию промышленных предприятий	1527
Ёдгоров Сардорбек Самадович	



Jismoniy shaxslar kreditlarining bank portfeli sifatiga ta'siri: tahliliy yondashuv.....	1533
Sabirova Lobar Baxromovna	
Xo'jaligini soliqa tortish mexanizmini samaradorligini oshirish istiqbollari	1539
Salimov Sherzod Baxtiyorovich	
Methods of improving customs management in transforming the customs bodies into a corruption-free field	1544
Mirzaxmedova Dilafuz Farxatovna, Tukhtabaev Jamshid Sharafetdinovich	
Особенности цифровизации налоговой системы в узбекистане	1548
Юсупов Одил Омонович	
Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda texnologik yangiliklarni joriy etish: muammolar va imkoniyatlar.....	1554
Ismailov Akmal axsudovich, G'ulomov Ilhom Akramovich	
Kichik biznes subyektlarini kreditlashda raqamli bank xizmatlaridan foydalanishning afzalliklari	1560
Madjitova Maftuna Kamiljon qizi	
Tadbirkorlikda tavakkalchilikni boshqarishning nazariy asoslari	1564
Ziyatova Sitora Baxtiyorovna	
Importance of media activity in negotiations.....	1569
Fariza Xoldarova	
Kredit portfeli risklarini diversifikatsiya qilish strategiyalari.....	1575
Hamroyev Sherzod Axtamovich	
Marketing strategiyasi tushunchasi va uning turizm sohasidagi ahamiyati	1580
Komilov Dostonbek Ro'zimboy o'g'li	
Banklarining faoliyatini tartibga solish yo'llari	1586
Umirzoqova Aziza Olim qizi	
Yashil iqtisodiyot sari: kanada tajribasi asosida o'zbekiston uchun istiqbollar	1590
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi, Norboyev Odil Abrayevich	
Aholi hayotiylik sifatining statistik tahlili	1595
Ostonaqulov Dilshod Ismatilla o'g'li	
Davlat moliyasini isloh qilish sharoitida budget jarayonini takomillashtirish.....	1602
Sholdarov Dilshod Azimiddin o'g'li, Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi	
Recent trends in the global stock market: a macro-level analysis with emphasis on asia and central asia (2023–2025)	1612
Mamataliev Bobur Saidnazar ugli	
Barqaror rivojlanishni ta'minlashda "yashil iqtisodiyot" ning o'rni	1617
Murodov Sardor Nurali o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li	
Aholi daromadlari va ta'lim darajalarini turmush darajasiga ta'sirini baholash.....	1623
Xusinov I.I.	
Soliqlarni yig'iluvchanligini oshirish istiqbollari	1630
To'xsanov Qudratillo Nozimovich	
Qoraqalpog'iston respublikasida xizmat ko'rsatishni rivojlantirish muammolari.....	1635
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Tleymuratov Bahadir Genjemuratovich	
Forecasting and mitigating risks in international projects based on financial management principles.....	1641
Oripova Saodat Mirfotikh kizi	
Uglerod chiqindilarini buhgaletariya hisobiga integratsiya qilish: o'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish vositasi sifatida.....	1646
Halilov Sherzod Akhmatovich	
Contribution margin, dol, and break-even analysis: a financial performance comparison of amazon and walmart (2020–2024).....	1657
Kodir Gulomov	
Yashil iqtisodiyot: mohiyati, tushunchasi va rivojlanish tamoyillari	1664
Ataniyazova Maksuda Baltabayevna	
Beqarorlik sharoitida korxona ishlab chiqarish potensialidan foydalanishning optimallashtirish.....	1669
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmat sektorining raqobatbardoshligini hamda ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish	1674
Musinov Dilshod Sultanovich	



Davlat tibbiyot tashkilotlarida tovar – moddiy zaxiralar harakatini hujjatlashtirish.....	1680
Kuliboyev Azamat Shonazarovich	
Bank likvidligini boshqarishda valyuta kursi barqarorligini ta'minlash mexanizmlari.....	1686
Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
Davlat xizmatlarining raqamlashuvi va tadbirkorlikka ta'siri.....	1690
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich	
Iqtisodiy tizimda risk va uning xususiyatlari.....	1694
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



IQTISODIY TIZIMDA RISK VA UNING XUSUSIYATLARI

Nasimov Ravshanjon Azimovich

PhD, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Maqolada soliqqa tortishning rivojlanish tendensiyalari bo'yicha jahon amaliyotida adolatli soliqqa tortish mexanizmlarini kuchaytirishga qaratilgan umumiy jarayonlar ko'rib chiqiladi. Bu jarayonning ajralmas qismini davlat budjetiga soliq tushumlarini jalb qilishning barqaror tizimini mustahkamlash tashkil etadi. Shu bilan birga, budjetga soliq tushumlarining belgilangan miqdorda tushmay qolish xavfini baholash, uning sabablarini aniqlash hamda ushbu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilish ham ko'zda tutilgan. Shuningdek, ma'lumotlar asosida tegishli soliq stavkasi darajasiga hech qanday ta'sir ko'rsatilmaligi aniqlanadi.

Kalit so'zlar: soliq stavkasi, soliq hisoboti, soliq riski, soliq stavkalari, budjet xarajatlari, resurs soliqlari, yer solig'i, mahalliy soliqlar, soliq, budjet, soliq imtiyozlari.

Abstract: The article examines the general processes aimed at strengthening fair taxation practices in world practice on the development trends of taxation. An integral part of this process, along with strengthening a stable system of attracting tax revenues to the state budget, is to assess the risks of tax revenues not reaching the budget in the prescribed amount, identify its causes, and work on this issue is provided both theoretically and practically. We determine that the data does not have any effect on the level of the corresponding tax rate.

Key words: tax rate, tax reporting, tax risk, tax rates, budget expenditures, resource taxes, land tax, local taxes, tax, budget, tax benefits.

Аннотация: В статье рассматриваются общие процессы, направленные на укрепление справедливой налоговой практики в мировой практике, тенденции развития налогообложения. Неотъемлемой частью этого процесса, наряду с укреплением устойчивой системы привлечения налоговых поступлений в государственный бюджет, является оценка рисков недостижения налоговыми поступлениями бюджета в установленном объеме, выявление его причин, а работа по данному вопросу проводится как в теоретическом, так и в практическом плане. Определено, что данные не оказывают никакого влияния на уровень соответствующей налоговой ставки.

Ключевые слова: налоговая ставка, налоговая отчетность, налоговый риск, налоговые ставки, расходы бюджета, ресурсные налоги, земельный налог, местные налоги, налог, бюджет, налоговые льготы.

KIRISH

Xalqaro Valyuta Fondi tahlillariga ko'ra, COVID-19 pandemiyasi oqibatida jahon miqyosida yuzaga kelgan yuqori darajadagi noaniqlik sharoitida moliya bozorlaridagi vaziyat va real iqtisodiyotning rivojlanishi o'rtasida sezilarli tafovutlar kuzatildi. Boshqa tomondan, soliq to'lovchi korxonalarda iqtisodiy faoliyatdagi noaniqliklar, soliq to'lov imkoniyatlarining pasayishi va soliq to'lay olmaslik xavflarining kuchayishi mamlakatlar budjetiga katta miqdorda zarar yetkazdi hamda moliyaviy tizimdagi boshqa zaifliklarni ham kuchaytirdi.

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida bo'lgani kabi, hozirgi kunda ham soliq riski bilan bog'liq salbiy iqtisodiy oqibatlarining ta'sirini kamaytirish, ushbu risklarni optimal baholash orqali budjetga yetkaziladigan zararni kamaytirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Bu borada ilmiy izlanishlar soni va ularda soliq riskiga oid tahlillar hissiati ortib bormoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida soliq to'lovchilar faoliyatini rag'batlantirish, ularning ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar bilan bir qatorda, ularda yuzaga keladigan soliq xavflarini optimal baholash orqali davlat budjeti uchun zararning oldini olishga xizmat qiladigan amaliy choralarni samarali amalga oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, risk tushunchasi turli manbalarda har xil yo'nalishlarda izohlangan. Masalan, S.I. Ojegov va N.Y. Shvedova riskni "muvaqqiyatga intilish" yoki "umid" sifatida, ya'ni ijobiy jihatdan



talqin qilgan bo'lsa, V.M. Usoskin bu tushunchani doimo noaniqlik bilan bog'laydi va uni oldindan ko'ra bilish qiyin bo'lgan hodisalarning ehtimoli sifatida ko'rsatadi. Ularning yondashuvi riskning umumiy mohiyatini tushunishda semantik va falsafiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiy-texnik yondashuvda esa risk miqdoriy ifodalanadigan, ehtimollar nazariyasiga asoslangan iqtisodiy kategoriya sifatida qaraladi. Masalan, V.T. Sevruck riskni zarar ko'rish yoki foyda yo'qotish ehtimoli bilan izohlaydi, P.G. Grabovoy, S.N. Petrova va S.I. Poltavtsev esa riskni korxona resurslarini yo'qotish, daromadni ololmaslik yoki qo'shimcha xarajatlar ehtimoli sifatida belgilaydi. Bu ta'riflar risk menejmenti sohasida amaliy yondashuvlarni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Moliyaviy risklar doirasida esa O.I. Lavrushin bank riskini ehtimoliy yo'qotishlarga olib keluvchi hodisalar qiymati sifatida ko'radi. G. Panova riskni kutilmagan hodisalar natijasida yuzaga keladigan yo'qotish yoki imkoniyat sifatida izohlaydi, bu esa riskning ijobiy va salbiy tomonlarini birgalikda ko'rsatadi. J.B. Sey esa riskni foydaning faqat bir qismini shakllantiruvchi omil deb hisoblaydi. Bu yondashuvlar riskni iqtisodiy qarorlar qabul qilishda muhim element sifatida ko'rishga asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ushbu tadqiqotda qiyosiy tahlil, induksiya va deduksiya baholash usullaridan foydalanildi. Qiyosiy tahlil asosida soliq riskining tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatgan ta'siri o'rganildi va turli manbalar asosida ularning o'zaro farqlari tahlil qilindi. Induktiv yondashuv orqali amaliy holatlar umumlashtirilib, deduktiv usul yordamida esa mavjud nazariyalar asosida ilmiy xulosalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy tizimda barcha iqtisodiy subyektlar ma'lum tartib, qoida va qonunlar asosida faoliyat yuritadi. Ushbu tartib va qonunlar subyektlardan tabiat hamda jamiyat qonunlariga moslashishni, ularning xususiyatlarini inobatga olgan holda harakat qilishni va ushbu qonunlarning ichki mazmunini o'rganishga asoslangan iqtisodiy faoliyatni talab etadi.

Tabiat va jamiyatning obyektiv hamda subyektiv qonunlari insoniyatni ulardagi kutilmagan holatlarni o'rganishga undaydi. Ayniqsa, insonlarning o'zaro birlashib iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanishi — ya'ni korxonalar tashkil etib ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishi — ularning qarshisiga turli xavflarni olib chiqadi. Bular ijtimoiy, iqtisodiy, texnik, tabiiy va siyosiy tushdagi xavflar bo'lishi mumkin.

Insoniyat hayot tarzida tabiat bilan bog'liq xavflarga duch kelmaslik va ularning ta'sirini kamaytirishga qaratilgan choralarni ko'rib borganidek, bunday xavflarning hayotga ta'sirini pasaytirish yo'llarini ham izlab topishga harakat qilmoqda (1-rasm).



1-rasm. Ijtimoiy-iqtisodiy xavflar tasnifi¹

Iqtisodiy faoliyatda esa, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xavflarni keltirib chiqaruvchi omillarni tasniflash zarur bo'ladi. Keltirilgan 1-rasmdan ko'rinib turibdiki, jamiyatda xavflar quyidagi yo'nalishlarda yuzaga keladi: tabiat va jamiyat qonunlariga moslashmaslik xavfi; ishlab chiqarish (faoliyat) jarayonlarida ro'y beradigan texnologik xavflar; iqtisodiy faoliyat va iqtisodiy munosabatlarda belgilangan maqsadlarga erisha olmaslik xavflari; hamda turli tabiiy, texnogen va fars-major holatlar natijasida yuzaga keladigan xavf omillari. Sanab o'tilgan xavflarning har biri o'ziga xos kelib chiqish sabablari bilan ajralib turadi.

Fikrimizcha, xavflarni boshqarishda ularni yuzaga keltiruvchi omillarni aniqlash hamda oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

¹ Muallif ishlanmasi.



Aslida, xavflarning o'zini ikki guruhga ajratish mantiqan asosli. Ularning birinchi guruhi — tabiiy xususiyatga ega va oldindan baholash mushkul bo'lgan tabiiy-texnik muammolardir. Bunday xavflarni boshqarish va ularning salbiy oqibatlarini kamaytirish ko'p jihatdan fan va texnologik taraqqiyot darajasiga bog'liq.

Ijtimoiy xavflarni, garchi aniqlash imkoniyati mavjud bo'lsa-da, ularning oqibatlari darajasi tabiiy, texnik va iqtisodiy xavflarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Ularni to'liq bartaraf etish esa murakkab jarayondir. Iqtisodiy xavflar esa, oqibatlari nuqtayi nazaridan ijtimoiy xavf bilan bog'liq bo'lsa-da, ularni baholash, kelib chiqish sabablarini aniqlash va boshqarish nisbatan murakkab bo'lsada, tabiiy xavflarga qaraganda yumshoqroq hisoblanadi.

Bu yerda bir narsani unutmaslik kerak: iqtisodiyotning murakkab obyektiv qonunlari va iqtisodiy munosabatlarning shakli hamda mazmuni iqtisodiy xavflarni to'g'ri baholashni murakkablashtiradi. Shu sababli, iqtisodiy qonunlar va munosabatlarni boshqarishning eng optimal usullarini izlab, ularni ilmiy asosda tadqiq etib borish talab etiladi.

Ushbu tadqiqotlar doirasiga moliyaviy-iqtisodiy xavflarni tizimli o'rganish ham kiradi. Demak, xavf tushunchasining mavjudligi — tabiiy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning uzviy va barqaror kechishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni tan olishni, ularni baholash va boshqarishni taqozo etadi. Xavfning mazmuni aynan shu nuqtayi nazardan anglanishi kerak.

Agar iqtisodiyotga oid ilmiy va o'quv adabiyotlarga nazar tashlansa, ularda "risk" tushunchasi ko'pincha "xatar" yoki "xavf-xatar" atamalarini bilan bir ma'noda ishlatiladi. Biroq ayrim iqtisodchi olimlarning fikricha, bu atamalar nazariy jihatdan bir-biriga yaqin bo'lib ko'ringaniga qaramay, ularning iqtisodiy mazmuni va amaliy ahamiyati jihatidan sezilarli farqlari mavjud. Ular ishlab chiqarish jarayonining turli jihatlarini o'zida aks ettiradi va alohida tahlilni talab etadi².

Xususan, "risk" va "tavakkalchilik" tushunchalarini bir xil ma'nodagi atamalar deb baholash to'g'ri emas. Risk, birinchi navbatda, xavf-xatar, tavakkalchilik, yo'qotish va zarar yoki foydani yuzaga keltiruvchi omillar yig'indisi sifatida qaraladi. U iqtisodiy faoliyatda yuzaga keladigan salbiy yoki ijobiy oqibatlar ehtimolini ifodalovchi murakkab iqtisodiy kategoriya bo'lib, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Risk — bu korxonalar faoliyatida xavf, xatar, tavakkalchilik, zarar yoki foyda bilan bog'liq natijalarning boshlang'ich manbai bo'lib xizmat qiladi. U, shuningdek, oldindan to'liq baholab bo'lmaydigan, turli noaniq omillar ta'sirida yuzaga keladigan obyektiv xarakterdagi iqtisodiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bunga sabab, ishlab chiqaruvchi tomonidan qabul qilinadigan har qanday qaror kutilmagan va bashoratlab bo'lmaydigan omillar ta'sirida shakllanadi.

Darhaqiqat, bu borada o'z nuqtayi nazarini bildirgan tadqiqotchilar va boshqa ko'pgina iqtisodchi olimlar fikrlariga ko'ra, "xavf" tushunchasini "risk"ning vujudga kelishiga olib keluvchi oraliq holat sifatida baholash o'rinlidir. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, xavf — bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan oraliq jarayon (yoki holat) bo'lsa, risk — bu shu jarayonning natijaviy holatidir (1-jadval).

1-jadval. Xavf tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy talqiniga ilmiy yondoshuvlar³

№	Muallif (lar)	Ta'rif mazmuni
11.	A. O'lmasov	Tadbirkorlik xatari bu-firmaning o'z foydasi va hatto kapitalidan ajralib qolish ehtimoli
22.	Yo. Abdullaev va b.	Foiz xavf-xatari bu - foiz stavkalarining darajasi va harakatining o'zgarishi natijasida zarar ko'rish xavfi
33.	Sh. Shodmonov, R. Alimov, T. Jo'raev	Tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) -yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foйда) olish maqsadida, tahlila bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir
	F. Nayt	Xavf -bu o'lchanadigan noaniqlik
44.	https://staff.tiame.uz/storage (Internet ma'lumoti)	Ma'lum bir shart-sharoitlarda inson hayoti va sog'lig'iga to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita zararli ta'sir qiluvchi hodisa, voqea, jarayonlar, ob'ektlar va boshqalarga xavf deb aytiladi.
55.	https://davaktiv.uz/uz/menu/korrupsiyaga-arshi-kurashish-bjicha-idoravij-uzhzhathlar (Internet ma'lumoti)	Korrupsiyaviy xavf-xatar-manfaatlarni ko'zlab korrupsiyaviy xatti-harakatlarni sodir etish ehtimoli va xavfi

2 Masalan, O'lmasov A. Iqtisodiyot asoslari. - T.: «Mehnat», 1997 y. 165 bet. 3. Abdullaev yo, Boboqulov kredit: 100 savolga 100 javob. - T.: «Mehnat», 1996 y. 80 bet. 4. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo'raev T. Iqtisodiyot nazariyasi - T.: «Moliya», 2002 y. 5. O'lmasov A., Sharifxo'jaev M. Iqtisodiyot nazariyasi. - T.: «Mehnat», 1995 y. 387 – bet. 6. Балабанов И.Т. Риск - менеджмент. - М.: «Финансы и статистика», 1996. 456 va shu kabilar.

3 Ilmiy adabiyotlar tahliliga asoslanib, muallif tomonidan tuzilgan.



Quyida keltirilgan 1-jadval mazmunidan ko'rinib turibdiki, aksariyat iqtisodchi olimlar xavfni tadbirkorlik faoliyatining yakuniy natijasiga ta'sir etuvchi holat, inson hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omil yoki foyda ololmaslik ehtimoli sifatida tavsiflagan. F. Naytning ta'rifiga ko'ra, "xavf — bu o'lchanadigan noaniqlik"dir.

Agar bevosita risk tushunchasining mohiyatiga e'tibor qaratilsa, "Vikipediya" qidiruv-ma'lumotlar bazasida ushbu atama quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

risk — bu noaniq oqibatlarga olib keluvchi vaziyatning o'ziga xos xususiyati;


tor ma'noda risk — bu xavfning miqdoriy bahosi, ya'ni bir hodisaning ikkinchi hodisa yuzaga kelganda necha marta takrorlanishi (chastotasi);

risk — bu yomon sharoitlarda biror narsani istalmagan holda yo'qotish ehtimoli;

risk — bu xavfning nazoratdan chiqib ketish ehtimoli va uning namoyon bo'lish darajasi bilan ifodalanuvchi oqibatlarining jiddiylilik darajasi.

Agar kelajakdagi voqealar bilan bog'liq noaniqlik hodisa sifatida qaralsa, "xavf" kategoriyasi esa kutilayotgan muayyan noxush vaziyatni ikki asosiy ko'rsatkich — uning yuzaga kelish ehtimoli va mumkin bo'lgan zarar miqdori orqali baholash imkonini beradi.

O'z navbatida, risk turli shakllarda namoyon bo'lishi mumkin bo'lsa-da, uning iqtisodiy turlari biz uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan qaranganda, risk — bu yuzaga kelgan taqdirda kompaniya obro'siga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi, moliyaviy ko'rinishda daromad yoki yo'qotishlarga olib kelishi mumkin bo'lgan noaniq holatdir. Shuningdek, risk — bu yo'qotish ehtimoli va uning kutilayotgan darajasining ko'paytmasi sifatida ham izohlanadi. Agar risk obyektini investitsiya qilingan kapital shaklida tasavvur qiladigan bo'lsak (xususan, moliyaviy investitsiyalar), barcha tushumlar foyda sifatida qabul qilingan holatda, ushbu investitsiya xavf darajasi orqali tavsiflanadi. Bunda kapitalning daromadlilik stavkalarini to'g'ri talqin qilish muhim ahamiyatga ega. "Risk" atamasi lotin tilidagi *rescō* — "kesish", "kamaytirish" so'zidan yoki yunon tilidagi *ῥιζικόν* — "xavf" so'zidan olingan bo'lib, bu atama noxush hodisalarning yuzaga kelish ehtimoli va ularning oqibatlari kombinatsiyasini anglatadi (hisoblash nuqtayi nazaridan — ularning ko'paytmasi sifatida)" (2-rasm).



2-rasm. Iqtisodiy risk omillari


Bir qancha noaniqlik manbalari, jumladan iqtisod, siyosat, hukumat siyosati, pandemiyalar va geosiyosiy mojarolar rasmiy va norasmiy iqtisodiy muhitga ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiy risk korporativ strategiyalar, biznes qarorlari va individual tanlovlarga bevosita ta'sir qiladi. Iqtisodiy risk kuchayganda axborot bo'shlig'i kengayadi, natijada kelajakdagi pul oqimlari o'zgaruvchanroq bo'lib qoladi. 2-rasmda ko'rsatilgandek, iqtisodiy risk omillari turlicha bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy tizimdagi risklarning mohiyatini anglash uchun, bizningcha, uning ildizini iqtisodiy munosabatlarning murakkabligida izlash lozim. Chunki, birinchidan, iqtisodiy munosabatlar stixiyali xarakterga ega bo'lib, ularni boshqarish muayyan darajada risklarni yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, jamiyatda iqtisodiy subyektlar cheklangan resurslar sharoitida maksimal naf olishga intiladi va bu harakatlar risklar doirasida kechadi. Uchinchidan, bozor sharoitida raqobat muhitining amal qilishi hamda uning tobora murakkablashuvi risklarni kuchaytiradi. To'rtinchidan, iqtisodiy munosabatlarning barqaror kechishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarning tez o'zgarishi va



bu omillar ta'sirining notekisligi iqtisodiyotda risk holatlarini yuzaga keltiradi. Beshinchidan, iqtisodiy holatni tahlil qilishda turli iqtisodiy indikatorlarning mavjudligi va ularni aniqlikda baholashdagi murakkabliklar risk omilini kuchaytiradi. Oltinchidan, jahon (yoki milliy) xo'jaligining notekis kon'yunkturasi va hududlar rivojlanishining asimmetriyasi iqtisodiy risklarning turli darajada namoyon bo'lishiga olib keladi.


Aslida, iqtisodiy risklar – bu iqtisodiy sohadagi xavflarning salbiy ta'siri darajasidir. Ularning mohiyatini yanada to'liqroq anglash uchun iqtisodiy risklarga xos bo'lgan belgilarning tahlili uslubiy jihatdan maqsadga muvofiqdir. Bu belgilardan biri — ularning tavakkalchilikka asoslanishidir. Ko'pgina adabiyotlarda ta'kidlanganidek, tavakkalchilik — bu iqtisodiy subyektlar tomonidan qabul qilinadigan qarorlar natijasida yuzaga keladigan harakatlar bo'lib, ular iqtisodiy risklarni vujudga keltiradi. Yuqorida qayd etilganidek, risklar iqtisodiy holat va iqtisodiy jarayonlarga ta'sir etuvchi kuchga ega. Iqtisodiy risklarning yana bir muhim belgisi — bu ularning iqtisodiy subyektlar manfaatlariga zid kelishidir (3-rasm).



3-rasm. Iqtisodiy risk belgilari

Risklar doimo manfaatlarni kesib keladi, bu esa iqtisodiy faoliyat olib borayotganlarning bosh manfaatlariga muvofiq kelmaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy risklarning mohiyatini ochib beradigan yana bir belgisi u doimo nobarqaror bo'ladi, shu jihatdan uni baholab borish lozim bo'ladi, bu esa, uning muhim belgisi hisoblanadi. Iqtisodiy risklar iqtisodiy faoliyati olib boruvchilar (yuridik va jismoniy shaxslar)ning maqsadlariga erishishlarini qiyinlashtiradi, bu esa uning o'ta murakkabligidan dalolat beradi, demak, u ularning iqtisodiy qarorlarning optimalligini baholab beradi, bular esa, iqtisodiy riskning muhim belgilarini ifoda etadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, iqtisodiy tushuncha yoki munosabatlarning mohiyatini anglashda ushbu tushunchalarga ilmiy-tadqiqotlar doirasidagi ilmiy yondoshuvlarning mazmunini ham tahlil qilish o'z mohiyatiga ega deb hisoblaymiz (4-rasm).



4-rasm. Tadbirkorlik riski⁴

4 Muallif tomonidan tuzilgan.



Ta'kidlash joizki, risklar ichida tadbirkorlik riski o'ziga xos murakkablik va xususiyatlarga ega. Avvalo, tadbirkorlik faoliyati murakkab raqobat muhiti va noaniq kon'yunkturaga asoslangan bozor munosabatlari sharoitida amalga oshiriladi, bu esa ko'plab risklarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. 4-rasmda yoritilganidek, tadbirkorlik riski bozor mavqeini saqlab qolish, yangi bozor topish, foyda ololmaslik kabi xatarlarni o'z ichiga oladi.

Tadbirkorlik riskining darajasi, bir tomondan, tashqi omillarga bog'liq bo'lsa, boshqa tomondan, tadbirkorning iqtisodiy siyosati, bilim va malakasi, bozor qonunlariga va jamiyatda qabul qilingan milliy qonunlarga amal qilishi bilan belgilanadi.

O'zbek iqtisodchi olimlaridan professor T. Malikov "Risk – faoliyat yuritish davomida turli omillarning o'zgarishi natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xatar yoki xatarlar majmuasidir", degan ta'rif bilan birga, tadbirkorlik riskining mohiyatini quyidagicha izohlaydi: "Tadbirkorlik riskining tabiatini tushunish uchun uning foyda bilan bog'liqligini o'rganish muhim. Tadbirkor noaniqlik sharoitida risk qilishga tayyor bo'ladi, chunki yo'qotish xavfi bilan birga qo'shimcha daromad olish imkoniyati ham mavjud. Holbuki, foyda olish kafolatlanmagan: u sarflagan vaqti, sa'y-harakati va qobiliyatlari uchun mukofot tariqasida foyda olishi ham, zarar ko'rish ham mumkin"⁵.

Ushbu fikrlar muallif tomonidan tadbirkorlik riskining tub mohiyatini chuqur anglatishda o'rinni talab qiladi. Malikov ta'kidlaydi: "Risk, chama, hodisa, raqobat – biznesning doimiy hamrohlaridir. Ba'zilar ishga sarmoya kiritish bilan, boshqalar esa o'z mulki bilan risk qiladi. Bu yerda risk nafaqat muqarrar, balki zaruriy holatdir. Tadbirkorlik riskining mavjudligi mohiyatan iqtisodiy erkinlikning orqa tomonidir, ya'ni uning uchun to'lanadigan o'ziga xos tovon"⁶.

Dissertatsion tadqiqotimizning ushbu bandi doirasida olib borilgan nazariy tahlillar asosida bir qator ilmiy xulosalarga kelish mumkin:

Birinchidan, risklar odatda salbiy holat sifatida baholanadi.

Ikkinchidan, noaniqlik, mavhumlik, ehtimollik va xavf tushunchalari risklarning mavjudligi bilan bog'liq.

Uchinchidan, risklar ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatga ega bo'lib, turli omillar ta'sirida yuzaga keladi va ularning darajasi farqlanadi.

To'rtinchidan, tadbirkorlik riski o'zining murakkabligi, kechishidagi noaniqlik, uni boshqarishdagi qiyinchilik va bozor qonunlariga mosligi kabi jihatlari bilan boshqa risk turlaridan ajralib turadi.

Beshinchidan, iqtisodiy risklarni boshqarish masalasi hozirda menejment sohasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz tadqiqotimizning ushbu bandi doirasida risk tushunchasiga quyidagi mualliflik yondashuvimizni taklif etamiz: Risk — bu tabiat va jamiyatning obyektiv qonunlari, ijtimoiy hayot tuzilmasi hamda inson hayotining muvozanatli kechishi va iqtisodiy munosabatlarning insoniyat manfaatlariga moslashuvi yo'lida turli to'siqlarni yuzaga keltiradigan ijtimoiy-iqtisodiy va sotsial holatdir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xavf, noaniqlik, stixiyalilik va mavhumlik kabi tabiiy-ob'yektiv jarayonlar jamiyatning boshqa sohalarida bo'lgani kabi, iqtisodiy munosabatlarda ham doimo mavjud bo'ladi. Iqtisodiyotning murakkab tuzilmasi va o'ziga xos qonuniyatlari mavjud bo'lganidek, unda yuzaga keluvchi iqtisodiy risklar ham shunchalik murakkablik kasb etadi. Insoniyatning iqtisodiy munosabatlarga kirishuvi bir tekisda kechmaydi, bu esa risklarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Xavflarni ikki asosiy guruhga ajratish maqsadga muvofiq:

Birinci guruh – tabiiy xususiyatga ega bo'lib, oldindan baholash qiyin bo'lgan tabiiy-texnik muammolar. Ularni boshqarish va salbiy oqibatlarining oldini olish fan-texnika taraqqiyotining darajasiga bog'liq.

Ijtimoiy xavflar esa, har qancha aniqlanishi mumkin bo'lsa-da, ularning oqibat darajasi ko'pincha tabiiy, texnik va iqtisodiy xavflarga nisbatan ancha yuqori bo'ladi. Ularni bartaraf etish jarayoni murakkabroq kechadi.

Iqtisodiy xavflar esa, natijaviy jihatdan ijtimoiy bo'lsa-da, ularni tahlil qilish, sabablarini aniqlash va boshqarish murakkab bo'lishi mumkin. Biroq ularning salbiy ta'siri tabiiy xavflarga nisbatan nisbatan yumshoqroq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси- Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи 2020.- 640 б.
2. Насимов Р.А. "Солиқ юкини оптималлаштириш йўллари" (phd) илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореферати. – Тошкент, 2024.
3. Ojegov S.I., Shvedova N.Yu. Tolkoviy slovar russkogo yazika. — M.: OOO —A TEMPII, 2006.
4. Usoskin V.M. Sovremenniy kommercheskiy bank: upravlenie i operatsii. - M.: IPS «vazar-Ferro», 1994.
5. Sevruck V.T. Bankovskie riski. M.: —Delo-LTDII, 2006.

5 T.S. Malikov. Moliya: amaliy jihatlar (o'quv qo'llanma).— T.: «Nihol print» OK, 2022. — 330 b.

6 T.S. Malikov. Moliya: amaliy jihatlar (o'quv qo'llanma).— T.: «Nihol print» OK, 2022. — 332 b.



6. Grabovoy P.G., Petrova S.N., Poltavtsev S.I. Riski v sovremennom biznesa. M.: —Alans, 2006.
7. Lavrushin O.I. Bankovskie riski. - M.: —Knorus, 2007.
8. Panova G.S. Kreditnaya politika kommercheskogo banka. - M.: —Yurayt, 2014.
9. Sey, J.B. Traktat po politicheskoy ekonomii. – M.: —Direkt-Media, 2007.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
